

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALARNING DERIVATION XUSUSIYATLARI XUSUSIDA MUHOZARALAR

Karimov Ilhom Tursunovich

Zarmed Universiteti ingliz tili o'qituvchisi

Quvondiqova Shahzoda Xayrulla qizi

Zarmed Universiteti 113-guruh talabasi

Annotatsiya. Maqola murakkab sintaktik qurilmalardagi komponentlarning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qiladi, ular orasidagi semantik va sintaktik aloqalarni ingliz va o'zbek tilida keltirilgan misollar yordamida derivatsiya nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Kalit so'zlar: Murakkab sintaktik qurilmalar, semantic aloqa, morfologik unsurlar, derivate, derivatsiya operandlari, komponent, yaxlit hosila struktura, bog'lovchi.

Bilamizki, murakkab sintaktik qurilmalarda komponentlar munosabati tenglikka yoki tobelikka asoslanishi mumkin. Komponentlar munosabati tenglikka asoslanganda (**Compound sentence**) ular o'rtasidagi birikish bog'lovchisiz yoki bog'lovchili bo'ladi. Komponentlar munosabati, bog'lovchisiz yoki bog'lovchili voqelanishidan qat'i nazar, MSQ semantik jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham to'liq shakllanadi. Quyida dastlab bog'lovchisiz voqelangan murakkab sintaktik qurilmalarga e'tiborimizni qarataylik:

This sincerely delighted him, looking at her pathetic dress and worn-out shoes, he asked himself how he could help her without offending her. (Theodore Dreise. Jenny Gerhardt)

Keltirilgan MSQ tarkibiy qismlari alohida semantik va sintaktik strukturalarga ega bo'lgan uch gapdan iborat bo'lib, bu o'rinda MSQ komponentlari bog'lovchilarsiz shakllanganligi uchun uning komponentlari munosabatlari birinchi galda semantik bog'lanishga tayanmoqda, zotan, har bir gap ikkinchisining (o'zidan oldingisining) mazmuniy salmog'ini to'ldirish uchun xizmat qilmoqda. Bu esa ular o'rtasida semantik uzviylikni tashkil etadi.

When Jenny came the next time, the senator began to ask in detail about how her relatives live, what she wants and what she dreams about. (Theodore Dreise. Jenny Gerhardt).

Berilgan misol komponentlari payt ma'nosini ifodalovchi tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmadir. Ayni paytda komponentlar o'rtasidagi tobelik payt ma'nosi ifodasi doirasida ro'y berayotgani uchun *When* vositasi qatnashgan.

Murakkab sintaktik qurilma komponentlari vazifasida gaplar faollik ko'rsatishi sababli uning sathida voqelanadigan sintaktik munosabat ham o'z xarakteriga ko'ra gap doirasida kuzatiladigan bunday munosabatlardan birmuncha farq qiladi. Aytish joizki, teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar tarkibiy qismlari o'zaro maxsus bog'lovchilar vositasida yoki bog'lovchisiz bog'lanishi mumkin. Ammo komponentlarining qanday bog'lanishidan qat'i nazar, ularda matn maqomi mavjudligini ko'ramiz [1]. Teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar an'anaviy tilshunoslikda *bog'langan* va *bog'lovchisiz* qo'shma gaplar nomlari bilan atalib kelindi. MSQ komponentlarini bog'lash uchun teng bog'lovchilar (biriktiruvchi, inkor, zidlovchi, ayiruvchi bog'lovchilari), yuklamalar (-u(-yu), -da, -ki) va bo'lsa, esa fe'l formalari xizmat qiladi [2].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Turniyozov, B. Turniyozov, Sh. Turniyozova. O‘zbek tilining derivatsion sintakisisi. Toshkent. – 2011.
2. G‘. Abdurahmonov Qo‘shma gap sintaksis asoslari. Toshkent. – 1968.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – M.,1981. – B. 158-159.
4. Turniyozov N.Q. Mahmud Koshg‘ariy va hozirgi tilimizda so‘z yasalishi hodisasi haqida//Xorijiy filologiya, №3, 2014. – B. 8.